



MAHMUXO‘JA BEHBUDIYNING PUBLISTISTIK HAYOT YO‘LI

Sobirov Ulug‘bek

Turon Zarmed universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning jadidchilik faoliyatidagi publististik ishlari, jamiyat rivojidagi bartaraf qilinishi lozim bo‘lgan muammolar yuzasidan bildirgan fikrlari bayon qilingan

Kalit so‘zlar: Gazeta va jurnallar, mustabitlik, milliy ozodlik kurashi, ta’lim va tarbiya, ijtimoiy hayot, zulum va zo‘ravonlik, jadidlar, maqolalar.

XIX asr axborot kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalar asri ekanligi hech kimga sir emas. Shiddat bilan rivojlanib kelayotgan bu davrni O.A.V hamda jurnalist-bloggerlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tevarak atrofimizda bo‘layorgan voqeа hodisalar, turli jarayonlardan boxabar bo‘lishimizda O.A.Vning o‘rni katta. Ayniqsa hozirgi ochiqlik va oshkoraliq zamonida ularning olib borayotgan faoliyati insonlar hayotini yaxshilashga o‘z hissasini qo‘shadi.

Prezidentimiz Sh.M Mirziyoyevning 2020-yil 27-iyun “Jurnalistlar kuni”ga bag‘ishlangan bayram tabrigida quyidagi fikrni ta’kidladilar: “Bir narsani bilib qo‘yinglar, bu ochiqlik, oshkoraliq hech qachon ortga qaytmaydi. Ochiqlik qanchalik ko‘p bo‘lsa, ommaviy axborot vositalari haqiqiy muammolarni, haqiqiy holatlarni qonuniy yo‘llar bilan ko‘p bildirsa men rahbar sifatida ulardan minnatdor bo‘laman”¹. Bu bilan prezidentimiz jurnalistlarning faoliyati har sohada: xoh u ijtimoiy, xoh siyosiy, xoh iqtisodiy bo‘lsin barchasida oshkoraliq va ochiqliknki ta’minalash katta ahamiyat kasb etishini bildirdilar.

Jurnalistika tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, butun Turkiston o‘lkasida dastlabki matbuot va jurnalistik faoliyat XIX asrning 80-yillariga borib taqaladi. Eng birinchi matbuot gazetasi Rossiya imperiyasi bosqinidan keyin mustamlaka bo‘lgan Turkiston jumhuriyatini ogohlilik va mustaqillikka chorlash, mustamlaka zulmiga qarshi insonlarni kurashishga da’vat qilish maqsadida yangi tuzum tarafдорлари ya’ni jadidlar tomonidan nashr qilingan. Ilk jadid matbuoti 1883-yilda Bog‘chasaroyda Ismoil Gaspirali tomonidan nashr qilingan va uning nomi “Tarjima” gazetasi edi, bu bilan u o‘lkada o‘zlikni anglashni boshlab berdi. I.Gaspiralidan keyin Turkiston o‘lkasida bir necha o‘nlab jadid nashrlari va gazeta-jurnallari paydo bo‘la boshlari. Bularga misol qilib: Ahmad Hodi Maqsudiynning “Yulduz”, Fotix karimning “Vaqt”, “Ulfat” gazetalari, Munavvarqorining “Xurshid”, Avloniynning “Shuhrat”, Ahmadjon Bektemirovning “Osiyo” hamda Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Oyna” jurnali hamda “Samarqand” gazetalarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

“Oyna” jurnali Behbudiyning qaynoq faoliyatini ko‘rsatadigan va g‘oyalarini ilgari surgan yorqin yodgorlik hisoblanadi. Jurnalning birinchi soni 1912-yil 20-avgustda chiqqan bo‘lsa, oxirgi soni 1915-yil 15-iyunda chiqqan. Shu 3 yil davomida bu jurnal zamonasining voqealarini, Behbudi esdalik va xotiralarini hamda yoshlarga yo‘llagan murajaatini o‘zida aks ettirgan. “Oyna” jurnali har haftada bir marta chiqarilgan, har soni 22 saxifadan iborat bo‘lgan. Jurnalning 47-sonidan boshlab fotoillyustratsiyalar joy ola boshlagan. Bu fotolar ichida Behbudiyning ustozи I.Gaspirali, Samarqand

¹ Sh.Mirziyoyev- 2020-yil 27-iyundagi jurnalistlar kuniga bag‘ishlangan tabrigidan.



obidalari hamda o‘zining sayohatlari davomida to‘xtab o‘tgan diqqatga sazovor joylarining suratlari aks ettirilgan edi. Jurnal boshidan 4 tilda nomlanib chiqqan: “Oyna”- “Ko‘zgu”- “Mir’at”- “Зеркало” nomlari bilan bosilgan. Behbudiy nima uchun jurnalning nomini bunday “Oyna” deb qo‘yanini quyidagicha ta’riflaydi: “Oyna... Unda odam nazar tashlasa o‘zini ko‘radi va qiyofasining qandayligidan ogoh bo‘ladi. Qizil, sariq, qora yoki oq bo‘lsa, bu omillar ta’siri natijasinda uning moddiy va ma’naviy holatining hosili bo‘lgan... kishi ilojini qidira boshlaydi... Odamzotning oynasi odamdir... Boz ustiga, odamzotning oynasi boshqa odamdir. Do‘sstar bir-birining oynasidir va faqat odamzotgagina oyna yasash hamda yaratish mahorati berilgandir”² Behbudiy bu bilan odam qachonki yuziga oyna tutilgandagina o‘zining qanday inson ekanligini, u yaxshimi yoki yomon kimsa ekani bilinadi deb ta’kidlaydi.

Behbudiy shu vaqtning o‘zida “Oyna” jurnali bilan birgalikda Samarqandda “Samarqand” gazetasini ham chop qilib borgan. “Samarqand” gazetasi- jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy gazetasi bo‘lgan. Mazkur gazetaning ilk soni 1913-yilning 15-apreldidan Samarqand shahrida haftasida 2 marta o‘zbek, fors va rus tillarida chop qilingan. Nashryotchi va bosh muharr Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘zi bo‘lgan. “Samarqand” gazetasida Turkiston o‘lkasi xalqlarining taraqqiyoti ko‘zlangan va jamiyatdagi islohotlarni ko‘rsatuvchi maqolalar va she’rlar chop etilgan.

Bundan tashqari yevropa va AQSHda nashr etiladigan gazetalar va ularning o‘quvchilari haqida ham xabarlar berilgan. Hoji Muin, Munavvarqori, Fitrat, Kamiy, Saidrizo Alizoda, Nusratilla Qudratilla o‘g‘li (Milliy), Rojiv va boshqa jadid adiblarining asarlari e’lon qilib xalqga taqdim qilib borilgan. Adadi 400—600 nusxadan iborat bo‘lgan. 1913-yilning 17-sentabrida 45-soni chiqqach, moddiy qiyinchilik sababli “Samarqand” gazetasi bosib chiqarilishi ham ham to‘xtagan. Oradan biroz vaqt o‘tgach 1915-yilning yozida “Oyna” jurnali ham o‘z faoliyatini tugatgan. Bu jurnal va gazetalarni davlat yoki hukumat tomonidan moliyalashtirilmagan, bu xarajatlar hammasi Behbudiyning o‘z shaxsiy pullaridan, shaxsiy sarmoyasidan foydalanib chop etilgan. Ammo rus imperiyasi butun jadidlar faoliyati bilan birga gazeta va jurnallarning bosilishiga ham qarshilik ko‘rsatishgan , monelik qilingan. Ushbu gazeta va jurnallarda yosh ma’rifatparvarlarning badiiy asarlari, xalqni musatqillikga undovchi she’rlari hamda atrofda ro‘y berayotgan voqealarni hodisalar yoritib borilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining “Oh va hasrat” nomli maqolasida odamlarning turmush tarzini ulamo isloh etishi kerakligi, ta’lim-tarbiya uchun ular mas’ul ekaniga urg‘u berib, olimlarga “varasai anbiyo” — payg‘ambarlarning vorislari sifatida qaraydi va shunday fikr bildiradi: “Har millat va din ahlining boshchi va hodiysi ulamodurlar. Ulamo hazrati, albatta, tullab ichidan yetishib chiqadi. Ulamo hazrati millat uchun diniy va dunyoviy ishlarg‘a yo‘l ko‘rsatuvchi va tarbiya etuvchidirlar... Xaloyiqni hech kim go‘ridan chiqarib isloh etmas. Ulamo, maktab va madrasa isloh etar...”³ Bu yerdagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki ilmsizlik, loqaydlik va beparvolik Behbudiyning hasratlariga va oh chekishiga sababchi bo‘ldi. Insonlar ongi, hayotini, ilm doirasini isloh qilishni va bilim, haqiqat hamda taraqqiyot uchun olg‘a da’vat etishni o‘z oldiga ulkan maqsad qilib qo‘yadi. Behbudiyning bunday qarashlari va ilm, ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilish to‘grisidagi mulohazalari Prezidentimiz tomonidan 2020-yilga “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtsodiyotni rivojlantirish yili” deb nom berilib, ilm, fan, ta’lim kishilari, olimlar har tomonlama qo‘llab-quvvatlanayotgan bugungi kunimizdagи islohotlarga mazmunan juda yaqin va o‘xshashdir. Uning orzu istaklari hozirgi zamonimizda ro‘yobga choqmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Behbudiy o‘z zamonasining ijtimoy-maishiy va ma’rifiy masalalariga ham befarq bo‘lmagan. Bunday masalalar bugungi kunda ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Bularga misol qilib:

² M.Behbudiy Oyna chist? “Oyna”-1913-y N1 25-b. Asl matn tojik tilida bo‘lib, buyerda tarjimasi keltirilgan.

³ M.Behbudiy “Oh va hasrat” maqolasi “Oyna” 1913-y N3



to'y va marosimlarni kam xarj qilib o'tkazishni olishimiz mumki. "Oyna" jurnalining 1913-yil 6-sonidagi bir maqolasida shunday yozadi: "Katta to'y qilib, xotun olgan bir qism bechoralarni holig'a yig'lamoq kerak. Uch kunlik to'yning azasi ba'zi oilalarda o'n yil, hatto bir umr surar, balki bevatan va xonavayronlikg'a sabab bo'lur. Aqchalik otalar, albatta, to'y va ma'rakag'a qizg'onmaganlaridek bolani o'qutishg'a ham qizg'onmasa kerakdur"⁴. Bu bilan Behbudiyl odamlar bir kunlik to'y qilaman deb atrofdagilari bilan bir xil to'y qilishga urunib butun bo'yinlarigacha qarzga botib ketadilar va buni bartaraf qilish uchun o'n yillab hattoki butun umr qarz to'lash bilan mashg'ul bo'ladilar deb aytadi. Undan ko'ra boyvachcha otalar farzandlariga, o'gillariga dang'illama to'y qigandan ko'ra, shu to'y sarmoyasining yarmini farzandining, avlodlarining o'qishi uchun, ilmli bo'ishi uchun, agar iloji bo'lsa savob yo'lida kam suqum oilalarning farzandlarini ham ilmli bo'lishlariga ko'maklashi, ularning ta'lim olishlariga o'zlarining sarmoyasidan ajratsalar jamiyat rivoji uchun katta yordam bo'lishini aytadi.

Behbudiyl ilm-ma'rifat islohoti, jamiyatdagi ijtimoiy-maishiy muammolar bilan bir qatorda o'zbek adabiy tili, xalq tilining qismati, insonlarni yakdillika chorlash, tarqab ketmaslik va bir yoqadan bosh chiqarishga undash Behbudiyni o'ylantirgan edi. 1917-yilning yozida "Ulug' Turkiston" gazetasida bosilgan bir maqolada Behbudiyl shundayfikr bildiradi: "Xalqimizning hozirgi ixtilofi meni dilkun etar, mayus etar. Boshqa millatlar ittifoq ila ishlaganda, biz bir-birimiz ila dushmanliqg'a tursak, voy bizning holimizg'a... Bir dasta tayoqni birga bog'lasangiz, kimsa sindirolmas. Agarda ajratsangiz, bir-birin har kim sindir".⁵ Behbudiyl insonlarning bir bir bilan ittifoq qilmasligi, nizolarni tashqaridan emas balki ichkaridan avj olib kelishi jamiyatning parokanda bo'lishiga va g'animlarning changaliga osonlikcha tushib qolib qaram bo'lib yurishlariga olib kelishini tushuntiradi. Bu so'zlar bilan aytmoqchi bo'lganki: mazkur sababdan rus bosqinchilariga osonlikcha yengilib, ular qo'lida qaram bo'lib o'tirishga mahkum bo'ldik degan.

Xulosa qilib aytganda o'z vaqtida ulkan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy fikrlarni o'rtaga tashlagan Mahmudxo'ja Behbudiyning publististik faoliyatiga e'tibor bersak, bugun haqiqiy vatanparvar, millatparvar, el-yurt kelajagi uchun qayg'urgan fikri tiniq ziyoli, qarashlari keng fidoyi inson ko'z oldimizda gavdalanadi, bu inson go'yo tarix qa'ridan bizga qarab, bugungi mustaqil, hurriyatli, ozod kunlarni, o'zining muazzam orzusi ro'yobga chiqqan zamonani g'oyibona ko'rib, quvonib turgandek bo'ladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev- 2020-yil 27-iyundagi jurnalistlar kuniga bag'ishlangan tabrigi.
2. D.A Alimov, D.A Rashidova "Mahmudxo'ja Behbudiyl va uning tarixiy tafakkuri" – Tosh; 1999y
3. Холикова, М. К. К. (2021). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ШКОЛЬНИКОВ В ДУХЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ. European research, (1 (38)), 73-75.
4. Makhmudova, D. I., Isabayeva, D. K., & Holikova, M. K. AESTHETIC EDUCATION OF TALENTED STUDENTS IN THE SPIRIT OF NATIONAL PRIDE.
5. Holikova, M. K. IMPORTANT ASPECTS OF AESTHETIC EDUCATION OF SCHOOLCHILDREN IN THE SPIRIT OF NATIONAL VALUES.

⁴ M.Behbudiyl "Oyna" jurnalining 1913-yil 6-sonidagi maqolasidan

⁵ M.Behbudiyl "Ulug' Turkiston" 1917-y



6. Shuhratovna, N. M. (2021). Topic Groups of Microtoponyms of Jondor District. Middle European Scientific Bulletin, 8.
7. Юлдашева, М. М. (2022). ТИББИЙ ПЕДАГОГИК ЙЎНАЛИШ ТАЛАБАЛАРИДА МИЛЛИЙ АНЬАНАЛАР АСОСИДА БАФРИЕНГЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMUY JURNALI, 2(4), 333-336.
8. Юлдашева, М. (2020). Розвиток толерантності в історії східної культури. Науковий вісник Ізмайлівського державного гуманітарного університету, (46), С-158.
9. Muzaferova, Y. M. (2020). DEVELOPMENT OF TOLERANCE IN THE HISTORY OF EASTERN CULTURE. Chief Editor, 5(10).
10. Юлдашева, М. М., Юлдашева, М. М., Рузиева, М. Х., & Кличова, Ф. К. (2020). РОЛЬ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ И СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ. Биология и интегративная медицина, (4 (44)), 140-155.
11. Раҳматова, М. Р., Жалолова, В. З., Юлдашева, М. М., & Юлдашева, М. М. (2021). Тарабалар орасида соғлом турмуш тарзини тарғиб этувчи тўгараклар ташкил этишнинг устуворлиги. Биология и интегративная медицина, (1 (48)), 444-454.
12. Qizi, M. D. I., Komiljonovna, I. D., & Azamatovna, M. S. (2021). The essence of educating talented and creatively minded youth in the spirit of national pride. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(5), 383-386.
13. Jobirovich, Y. M. (2022). BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN HOLDA OLIB BORISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMUY JURNALI, 2(12), 19-23.
14. Ярашов, М. Д., & Хамдамова, Х. (2022). МЕТОДИКА РАБОТЫ НАД РЕЧЬЮ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 138-143.
15. Jobir o'g'li, Y. M., & Roziyabonu, S. (2022). 1-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA GEOMETRIK MATERİALLARNI O'RGATISH. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 132-137.
16. Jobir o'g'li, Y. M., & Maftuna, S. (2022). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TA'LIM MAZMUNINING TAVSIFI. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 144-147.
17. ESHMATOVA, Y. YAZARIN MAHARETİ VE PEYZAJ TASVİRİ. *DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI I*, 121.

